

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI "QIZIL KITABI" GA
KIRITILGAN YALPIZDOSHLAR LAMIACIEAE OILASINING
NUROTA DAVLAT QO'RIQXONASIDA TARQALGAN TURLARI**

Azizova Qizlarxon Olimboy qizi

Biologiya o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi 'Qizil kitobi'ga kiritilgan o'simliklarning Nurota davlat qo'riqxonasida tarqalgan Yalpizdoshlar Lamiaceae oilasiga kiruvchi: Olga bozulbangi, Proskoryakov bozulbangi, Sarxush bozulbang, To'mtoq marmarak, Uchpoyali oqto'sha, Ko'rimsiz qo'ziquloq kabi turlari haqida ma'lumotlar keltirilgan

Kalit so'zlar : tur, endem, relaktik, tog', yarimbutacha, ko'p yillik o't mayda va yirik toshlar

Yalpizdoshlar Lamiaceae oilasi Yalpizkabilar kichik sinfi, Yalpiznamolar qabilasiga mansub yer yuzidagi eng yirik oilalardan biri hisoblanadi. Uning vakillari asosan issiq va mo'tadil iqlimli mamlakatlarda keng tarqalgan. Bu oilaga 200ga yaqin turkum va 3000 ta tur kiradi. O'rta Osiyoda 53 turkumga mansub 360 tur O'zbekistonda esa 39 turkumga mansub 238 ta tur, Farg'ona vodiysida esa 26 turkumga oid 59 tur o'sishi ma'lum

Yalpizdoshlar oilasi O'zbekiston florasida ham keng tarqalgan oilalardan biri bo'lib foydali turlarga boyligi bilan boshqa oilalardan ajralib turadi. Shu jumladan Yalpizdoshlar oilasiga mansub 30 ta tur O'zbekiston Respublikasi 'Qizil kitobi'ga kiritilgan bo'lib, ulardan quyidagilar Nurota tog' tizmasida o'sadi.

Olga bozulbangi *Lagochilus olgae* Kamelin - Kamyoblilik darajasi 2. Nurota tizmasidagi kamyob endem o'simlik. Nurota tizmasida o'sadi. Jizzax, Navoiy va Samarqand viloyatlarida tarqalgan. Soni kam uchraydi. Yakka holda yoki kichik guruhlar hosil qilib o'sadi. Yarimbutacha bo'yi 20-50 sm. May oyining oxiri iyulda gullab, mevasi iyul – avgustda yetiladi. Urug'idan ko'payadi. Tog'larning pastki va o'rta qismlaridagi tosh – chag'ir toshli yonbag'irlarda turli o't shuvoqli, yirik o't va yarim butalardan iborat jamoalarda o'sadi. Nurota davlat qo'riqxonasida muhofaza qilinadi.



Olga bozulbangi *Lagochilus olgae* Kamelin

Proskoryakov bozulbangi *Lagochilus proskorjakovii* Ikromov – Kamyoblik darajasi 1. Nurota tizmasi uchun o'ta noyob, endem tur. Nurota tizmasida o'sadi, Jizzax va Samarqand viloyatlarida tarqalgan. Soni juda kam tarqalgan, yakka yakka holda o'sadi. Bo'yi 25 -35 sm li yarimbutacha .Poyalari oddiy yoki shoxlangan, siyrak, qisqa tukli. Urug'idan ko'payadi, iyun-iyulda gullab, iyul-avgustda mevasi yetiladi. Tog'larning o'rta qismidagi quruq tosh chag'ir toshli yonbag'irlarida o'sadi. Sharoitning noqulayligidan kam uchraydi. Nurota davlat qo'riqxonasida muhofaza qilinadi.



Proskoryakov bozulbangi *Lagochilus proskorjakovii* Ikromov

Sarxush bozulbang *Lagochilus inebrians* Bunge – Kamyoblik darajasi 3. Gʻarbiy Pomir Oloy va janubiy Qizilqumning qoldiq togʻlaridagi kamayib borayotgan endem oʻsimlik. Jizzax, Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlari, Nurota togʻlari etaklarida , Zirabuloq, Ziyovuddin togʻlarida, Zarafshon hamda, Turkuston tizmalarida shuningdek Qizilqumdagi Tomditogʻda tarqalgan. Soni tabiatda onda sonda va kichik tuplar hosil qilib tarqalgan. Eng zich tuplari Nurota va Oqtogʻlarda uchraydi. Boʻyi 30-60 sm oraligʻodagi poyalari oddiy yoki sershox yarimbuta. Iyun-avgustda gullab iyul-sentabrda mevasi yetildi. Urugʻidan koʻpayadi. Urugʻi 5-7 yil mobaynida unuvchanligini yoʻqotmaydi. 1957-1960-yillar mobaynida Samarqand viloyatida 2 gektat yerga ekib oʻstirilgan. 1960-yildan buyon OʻzR FA Botanika bogʻida ekilib kelinadi. Namgarchilik yetishmasligi chorva mollari tomonidan payxon qilinishi va koʻp yillar maboynida katta miqdorlarda yigʻib olinishi soni va arealiga katta zarar yetkazgan. Nurota qoʻriqxonasida muxofaza qilinadi.



Sarxush bozulbangi *Lagochilus inebrians* Bunge

To'mtoq marmarak *Salvia submutica* Botsch et Vved – Kamyoblik darajasi 2. Nurota tizmasidagi kamyob, relikt, endem o'simlik. Jizzax, Samarqand va Navoiy viloyatlari, Nurota tizmasida tarqalgan. Soni tabiatda yakka-yakka holda va kichik tuplar bo'lib tarqalgan. Ko'proq Nurota davlat qo'riqxonasida o'sadi. Bo'yi 15-40 sm ga yetadigan ko'pyillik o't. Poyasi bitta, tik, qalin bezchasimon tukli. Urug'idan ko'payadi. Iyun- iyulda gullab, iyul-avgust oylarida mevasi yetiladi. Tog'larning o'rta qismidagi surilmalarda qoyalarda, shag'alli va toshli yonbag'irlarda o'sadi. Chorva mollarining ko'plab boqilishi turning kamayib ketishiga sabab bo'lmoqda. Bu tur o'sadigan yerlarning bir qismi Nurota qo'riqxonasida muhofaza qilinadi.




To'mtoq marmarak *Salviya submutica*

Uchpoyali oqto'sha *Phlomoides anisochila* Salmaki-Kamyoblik darajasi
2. Nurota tizmasidagi nihoyatda kamyob, endem o'simlik. Jizzax viloyati: Qo'ytosh tog'ining Uxum qishlog'i atroflarida, Nurota tizmasining markaziy qismida tarqalgan. Tog'larning o'rta qismida shag'al toshli quruq yonbag'irlarida o'sadi. Bo'yi 20 sm ga yetadigan ko'p yillik, qalin tukli o't. Poyalari uchta, pastki qismidan tarvaqaylab shoxlangan, qalin tuklar bilan qoplangan. Iyun-iyul oyida yetiladi va urug'idan ko'payadi. Nurota davlat qo'riqxonasida muhofaza qilinadi.



Uchpoyali oqto'sha *Phlomoides anisochila*



Nurota tog' tizmasi

Ko'rimsiz qo'ziquloq *Phlomis nubilans* Zokirov- Kamyoblik darajasi 3. Nurota tizmasidagi kamyob, endem o'simlik. Jizzax, Samarqand va Navoiy viloyatlari, Nurota tizmasi va Oqtog'da tarqalgan. Tog'ning pastki va o'rta qismida mayda jins tuproqli, shag'lli va toshli yonbag'irlarda o'sadi. Bo'yi 30-40 sm oralig'idagi ko'p yillik o't. Poyasi bir nechta. Iyulda gullab, avgust oyida mevasi yetiladi. Urug'idan ko'payadi. Qishloq xo'jalik ekinlari uchun yerlarning o'zlashtirilishi va chorva mollarining boqilishi tufayli kamaygan. Populyatsiyasining bir qismi Nurota davlat qo'riqxonasida muhofaza qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi, I – tom. O'simliklar.Toshkent Chinor ENK, 1998

2.Узбекистон Республикаси Кизил китоби, I – том Тошкент Чинор ЕНК 2009.

3. <https://www.plantarium.ru/>

4. O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobi, -T "Chinor ENK "